

## Talabalar yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish

Husnidabonus Baxtiyor qizi Shukurova  
Namangan davlat unversiteti

**Annotatsiya:** Kitobxonlikni talabalar o'rtasida rivojlantirish - davlatimiz kelajagi ham yoshlar qo'lida yoshlar bilimli, va albatta keng dunyoqarashga ega, yangi g'oyalar, fikrlar yaratma oladigan aqli insonlar bo'lib yetishmog'i zarurdir. Talaba yoshlar o'tasida turli xil kitobxonlik tanlovlari, fan olimpiadalari, intellektual o'yinlar bo'lib o'tmoqda. Kitob o'qigan inson barcha joyda ravon tilga, chiroqli nutqqa, hurmat e'tiborga, iqtisodiy tomondan ham yaxshi natijalarga erishadi.

**Kalit so'zlar:** Qimmatli bilim olish, Miyani mashq qildirish, Dunyoqarashni kengaytirish, Xotirani yaxshilash, O'yin-kulgudan rohatlanish, Aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, Aloqa ko'nikmalarini shakllantirish, Stressni kamaytirish, Ruhiy salomatlikni yaxshilash, Uzoq va mazmunli yashash.

## Formation of reading skills in young students

Husnidabonus Bakhtiyor kizi Shukurova  
Namangan State University

**Abstract:** Development of reading among students - the future of our country is in the hands of young people, it is necessary for young people to grow up to be educated, and of course, intelligent people who can create new ideas and thoughts. , science olympiads, intellectual games are being held. A person who has read a book everywhere has a fluent language, beautiful speech, respect, and good economic results.

**Keywords:** Gain valuable knowledge, Exercise the brain, Expand your worldview, Improve memory, Enjoy entertainment, Develop mental abilities, Build communication skills, Reduce stress, Improve mental health, Live long and meaningfully.

Inson har doim ozuqa olishi kerak, bu uning biologik ehtiyojidir . Endi biz faqat biologik ehtiyoj bilan emas, ruhiy ehtiyojlarimizni ham qondirishimiz kerak. Ruhiy ozuqalarni kitoblardan, manbaalardan yoki kishilar bilan muloqotga kirishgan paytimiz olamiz.

Afsuski, hozir biz faqat nafsimiz (biologik) ehtiyojlarni qondirish bilan mashg'ulmiz. ayrim insonlarga e'tibor bersak egnida falon firmaning libosi, falon restoranda ovqatlanadi, hamidan yaxshi mashinada yuradi, lekin ozgina muloqotga

kirishilsa uning dunyoqarashi qanchalik qashshoq ekanligini bilib olamiz. Haqiqiy qiymat libosimiz yoki mansabimizga qarab emas ma'naviy dunyoyimizga nisbatan beriliashi kerak, aslida. Biz faqat tashqi ko'rinishga qarab baho berar ekanmiz, jamiyat ham shu holida tanazzulga yuz tutadi. Chunki bizni ongimizni bu dunyoviy narsalar o'rab olgani, kitoblardan (ma'naviy olamdan) uzoqlashish bizning ziyonga ketishimizga va dunyoqarashi tor fikri qisqa inson bo'lib qolishimizga sabab bo'ladi. Biz chet eldan andoza olishimiz kerak deb ko'p aytamiz, shunda ular erishgan cho'qqiga erishamiz deymiz. Keling endi bu gaplar haqida chuqurroq fikr almashaylik. Biz chet elning aslida nimasiga taqlid qilishimiz kerak? Kiyinishigami, yoki soch turmaklari, bazmlar (bir so'z bilan aytganda erkak ayol birga hoxlagancha munosabatga kirishib, ayollarni esa yarim yanang'och holda yurishigami)? Ayingchi bu narsalar bizni rivojlantirishi mumkinmi? Shu narsalarga taqlid qilsak qanchalik to'g'ri? Biz ularni ilmiga, bilim olishiga, qanday qilib shu ilmlarni rivojlantirish, o'z ustida ishslash usullariga taqlid qilishimiz kerak.

## KITOBOQISHNING FOYDASI

### NIMA UCHUN HAR KUNI KITOBOQISH KERAK?

1. Qimmatli bilim olish;
2. Miyani mashq qildirish;
3. Dunyoqarashni kengaytirish;
4. Xotirani yaxshilash;
5. O'yin-kulgudan rohatlanish;
6. Aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish;
7. Aloqa ko'nikmalarini shakllantirish;
8. Stressni kamaytirish;
9. Ruhiy salomatlikni yaxshilash;
10. Uzoq va mazmunli yashash.

Kitob o'qish bu-inson tafakkurining ozuqasi va mahsulidir. Bu haqda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham o'z fikrlarini bayon etadilar: "Kitob o'qigan o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. Kattalarga xushomad qilmaydi, uning bilmi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz" deb aytganlar. Kitob o'qigan odam hech qachon va hech qayerda xor bo'lmaydi. Insondagi barcha mol mulk, boyliklarni tortib olish mumkin, lekin hech kim insonni bilimini, ilmini hech qachon tortib ololmaydi. Bilim inson uchun doimiy me'ros va boylikdir.

Nafaqat dunyo miqiyosida bizning yurtimizda ham yoshlar o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularni bilimli kitobxon yoshlar qilib tarbiyalash ham eng muhim masalalardan biridir. Mamlakatimizda ham yoshlarni bilimli tarbiyaalsh, ularda keng dunyoqarash va intellektual salohiyatlarni oshirish va tafakkurga ega

shaxs qilib tarbiyalashuchun shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, 2017-yilning 13-sentabrida Respublika prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yich kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risi"gi qaror qabul qilindi. Unda "jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan xalqimiz ayniqsa yosh avlodning ma'naviy intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda ona vatanni va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirish" maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan.

Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmonining" To'rtinchi tashabbus-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish "dasturi belgilangan vazifalarning ijrosini taminlashda muhim" hisoblanadi. Kitob bu beminnat ustoz, bilim esa bitmas tunganmas xazinadir. Kitob o'qish uchun insonda qiziqish, xoxish, ishtivoq va sabr toqat bo'lsa bo'lgani. Kitob o'qimagan kishi o'zgalar bilan muomalaga ham kirisha olmaydi, o'zi fikr yurita olmaydi, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy muhitdan ajralib qoladi.

Kitobxonlikni talabalar o'rtaida rivojlantirish - davlatimiz kelajagi ham yoshlar qo'lida yoshlar bilimli, va albatta keng dunyoqarashga ega, yangi g'oyalar, fikrlar yarata oladigan aqli insonlar bo'lib yetishmog'i zarurdir. Talaba yoshlar o'tasida turli xil kitobxonlik tanlovlari, fan olimpiadalari, intellektual o'yinlar bo'lib o'tmoqda. Kitob o'qigan inson barcha joyda ravon tilga, chiroyli nutqqa, hurmat e'tiborga, iqtisodiy tomondan ham yaxshi natijalarga erishadi. Talaba yoshlarni bo'sh vaqtini kutubxonalarga va ma'naviy dunyosini boyitish uchun kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz va ularni kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lib davtamizga foydasi tegadigan kadr qilib tayyorlashimiz kerak. Ular kelajak avlod yoshlariga o'rnak bo'lishi, o'z bilimini esa shu avlod yoshlariga tushunarli qilib o'rgatishi lozim. Kitob o'qigan inson savol berishni biladi, o'zgalar oldida uyalib qolmaydi, dunyoqarashi ham yaxshi rivojlangan notiq bo'ladi.

Bizning davlatimizga ham bilimli, kitobxon izlanuvchi talabalar juda ham kerak. Davlatimiz sha'nini oqlashimiz, uni butun dunyoga tanitishimiz uchun barcha yoshlarni kitobxon qilib tarbiyalashimiz zarurdir. Buning uchun eng avvalo barcha oilalarni bilimli qilishimiz kerak, chunki tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Kitob bu boylikka aylanadi qachonki undan foydalana olganimizda. Shunday ekan kitoblardan hech qachon yuz o'girmang va bilim olishdan charchamang. Zero kitob o'qish bizni yuksak cho'qqilarga chiqishimizga sabab bo'lishi mumkin. KITOBSIZ KELAJAK YO'Q. Kitob bu muvaffaqiyatga erishishning eng yaxshi yo'lidir. Hech qachon kech bo'lmaydi, bugundan boshlang, kitob o'qigan saringiz bilmagan

narsalaringiz ko'p ekanligini anglay boshlaysiz. ENG YAXSHI DO'ST BU KITOBDIR. Muvaffaqiyatga erishish uchun ham o'qing va hayotingizni ortiqcha dard, hasad, stress, o'ylar bilan kechirishni hohlamasangiz kitobxon bo'lishga shoshiling. Dunyoyingizni go'zal va ma'noli o'tishi o'zingizga bog'liq. KITOB O'QING VA HAYOT QANCHALAR GO'ZAL VA MA'NOLI EKANLIGINI ANGLANG. BUGUNDAN O'QISHNI BOSHLAYMIZ VA MAQSADLAR SARI QADAM TASHLAYMIZ!!!

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. PF-5847-son 08. 10. 2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-4545884#-4547594>
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т. : Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т. : Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
4. O'zbekistonda ta'lim- wikipedia [https://uz. m. wikipedia.org/wiki/O%Ca%BBzbekistonda\\_ta%CA%BClim](https://uz. m. wikipedia.org/wiki/O%Ca%BBzbekistonda_ta%CA%BClim)
5. Azimaxon Kamolova osh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'r ganishning o'r ganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3. 567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar.